

Huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikni jilovlash.

Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birga mahalliy hokimlik va boshqa mutasaddi idoralar zimmasiga muhim vazifalar yuklangan. Ular buni bajarish bo'yicha turli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Shunga qaramay jinoyatlar uchrayotgani, jinoyat qilgan shaxslarning har uchinchisini yoshlar tashkil qilayotgani afsuslanarli.

Sodir etilayotgan jinoyatlarning 32 foizi o'g'rilik va firibgarlik hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar ichida og'ir jinoyat sodir etganlar ham borligi achinarli.

Jinoyatchiga jazo berishdan ko'ra, uning oldini olish afzal. Bu yo'nalishda hamkorlikni kuchaytirish lozim. Jinoyatchilikka qarshi kurash nafaqat huquq-tartibot organlarining, balki barchamizning faoliyatimiz mezoni bo'lishi kerak.

Farzand niholga o'xshaydi. Uni yoshligidan qanday tarbiyalasak, shunday voyaga yetadi. Bunda, albatta, oila, mahalla, ta'lim tashkiloti va jamiyatdagi muhit muhim ahamiyatga ega. Zero, o'zi, oilasi, xalqi, ma'naviy ildizlari haqida yetarli tushunchaga ega bo'lgan bola jinoyat ko'chasiga qadam bosmaydi.

Hozirgi kunda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon qilish, ularning fuqarolik javobgarligini va olib borilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini oshirish borasida bir qator amaliy ishlar qilinmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish darkor.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish bilan bog'liq aniq vazifalar belgilangan.

Ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy yoshlar tarbiyasini "hayot - mamot masalasi", deb ta'riflagan. Zero, tarbiyasi mo'rt yoshlardan jamiyat, mahalla yoki oila

uchun hech qanday naf bo'lmaydi. Yoshlarning jinoyatga qo'l urishi tarbiyada yo'l qo'yilgan xato yoki befarqlikning achchiq in'ikosidir.

Kelajagimiz yoshlarning qo'lida ekanligini unutmagan holda ular tomonidan jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, ezgu va bunyodkorlik tashabbuslari chiqishini, shunday ishlar amalga oshirilishini ta'minlash uchun barchamiz birdek harakatda bo'lmog'imiz shart.

Jinoyat ishlari bo'yicha

Oltinsoy tuman sudining raisi

T.Abdullayev